



AYOLLARNING REPRODUKTIV HUQUQLARI: HUQUQIY ME'YORLAR VA DOLZARB MUAMMOLAR

Yo'ldosheva Madinabonu Olloyor qizi

Toshkent davlat Yuridik universiteti Jinoiy-odil
sudlov fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20371732>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-may 2026 yil

Ma'qullandi: 23-may 2026 yil

Nashr qilindi: 25-may 2026 yil

KEY WORDS

ayollar huquqlari , reproduktiv
salomatlik , reproduktiv huquqlar ,
gender tenglik , CEDAW , erta
nikoh , oilaviy zo'raonlik , himoya
orderi , milliy qonunchilik , xalqaro
standartlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ayollarning reproduktiv huquqlari tushunchasi, ularning mazmun-mohiyati hamda huquqiy tartibga solishning milliy va xalqaro mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot davomida reproduktiv salomatlikni saqlashning ahamiyati, bu boradagi milliy qonunchilik bazasi, xususan, "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda xalqaro standartlar (CEDAW, Pekin platformasi va b.) ko'rib chiqilgan. Maqolada erta nikohlar, mehnat munosabatlaridagi kamsitishlar va oilaviy zo'raonlik kabi dolzarb muammolar ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilib, ularni bartaraf etish, xususan, "himoya orderi" va rehabilitatsiya markazlari tizimini takomillashtirish yuzasidan xulosa hamda takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, xalqaro sud amaliyotidan misollar (Amanda Mellet ishi) keltirilib, reproduktiv huquqlarni himoya qilishning ahamiyati asoslab berilgan..

Hozirgi paytda ayollarning huquqlari erkinliklarining huquqiy himoyasini yanada mustahkamlash uchun butunjahonda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'tgan so'nggi asrlar mobaynida biz ayollarning huquqlari va erkinliklarining himoyasi uchun kurash boshlangan va hozirgi kunga kelib ularning huquqiy himoyasining darajasi maksimal darajaga olib chiqildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu islohotlarga turtki bo'lgan bir qancha omillarni sanab o'tishimiz mumkin.

Birinchidan, faqatgina ayollar sog'lom avlodni dunyoga keltiradi, bundan tashqari ayollarning huquqlari cheklanganligi oqibatida inson huquqlarining poymol etilishi kuchaydi.

Ikkinchidan, ayollarning ta'lim olish yo'nalishida ortda qolib ketishi va natijada jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga aralasha olmasligi.

Uchinchidan, ayollarning ishlash, ish faoliyati bilan bog'liq kamsitishlariga duch kelishi.

To'rtinchidan, ayollarning davlat boshqaruvi sohasidagi ro'li, o'rni deyarlik yo'qligi.

Beshinchidan, ularga nisbatan oilada zo'raonlikni kuchayishi.

Yuqorida sanab o'tgan sabablarimiz ayollarning jamiyatda har jihatdan ro'lini kuchaytirish uchun yetarlicha edi. Va hukumatimiz ham asta-sekin ularning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash uchun chora-tadbirlar olib borishni, milliy strategiyalarni qabul qilishda ayollar huquqlarni himoya qilish mavzusini bosh mavzu deb olib chiqa boshladi. Ayollar huquqlarini himoya qilish yuzasidan turli xil yangi xalqaro tajribalarni implemetatsiya qilish ishlarini olib bordi, ulardan biri bu ayollarning reproduktiv huquqlarini himoya qilishdir.

Ayollarning reproduktiv huquqlarining huquqiy asosi va ularning ijrosini tahlil qilishdan avval biz reproduksiya nima ekanligi va shuningdek reproduktiv huquq qanday huquq va bu kimlarga berilishi, bu huquq tabiiy huquqmi yoki pozitiv huquq ekanligini bilib olishimiz darkor. O'zi reproduksiya degan so'zning sturli xil ma'nolari bor bo'lib, shulardan biri bu biologoya sohasida organizmni o'ziga o'xshash organizmlar yaratishi ko'payishini tushunadigan bo'lsak, tibbiyotda esa ayol reproduktiv organlari ish faoliyati natijasidan o'zidan yangi bir avlod yaratishni deganidir. Reproductiv huquq degani bu bu barcha er-xotin va alohida shaxslarning oilada bolalar soni, ular tug'ilishidagi oraliq, tug'ilish vaqti haqida erkin hamda mas'uliyat bilan qaror qabul qilishi, buning uchun shart bo'lgan ma'lumot vositalarga ega bo'lishi borasidagi asosiy huquqlarni tan olish demakdir. "Oilaning mustahkamligi ko'pgina omillarga, asosan ona va bolaning salomatligiga bog'liqdir", - degan mazmundagi so'zlarni ko'p eshitganmiz. Darhaqiqat, o'ylab qarasak, ona sog'lom bo'lsagina, undan jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom farzand dunyoga keladi. Va ayollarning salomatligini faqatgina homiladorlik davrida emas, balki yoshlik davridan boshlab ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Negaki, u farzand dunyoga keltirgunga qadar u o'zi emotsional ichki hissiy tomondan ham salomatlik jihatidan ham organizimi uchun yetarli moddalar kerak bo'ladigan muhim bosqichlardan o'tib keladi. Aslida, jamiyatda ayollarning turli xil huquqlari mavjud bo'lib, o'zi ayollarning huquqlari deganda bu ayollarning jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy va siyosiy huquqlarini ta'minlashga yordam beradigan huquqlaridir. Jamiyatda yurish-turishda erkaklarning ham xuddi shu kabi huquqlari mavjud-ku, nimaga ayollarnikiga alohida urg'u berish kerak degan savolga javob berishimiz mumkin, ayollarning huquqlari asosan jinsga qarab kamsitilishdan himoyalashga mo'ljallangan bo'ladi erkaklarnikiga nisbatan. Ayollarning reproduktiv huquqlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, ayollarning bunday huquqlari ularning fuqaroviy-siyosiy huquqlarini rivojlanishiga ko'maklashuvchi huquqlari jumlasida kirib ketadi. Nega? Chunki ayollarni qaysi paytda turmush qurishi, farzand dunyoga keltirishi, neach nafar farzand dunyoga keltirishi bu ularning fuqaroviy ya'ni har bir fuqaroning xohishi, istagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqidir. Reproductiv huquqlarni siyosiy huquq sohasiga kiritishimdan asosiy sabab bu reproduktiv huquqlarni ta'minlash mexanizmlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bevosita davlat bilan, u olib borayotgan siyosat bilab bevosita bog'liq bo'lgani uchun ham ushbu huquq ko'lamiga kiritib o'tdim.

Jamiyatimizda erta nihok qurish, erta "onalik" maqomiga ega bo'lish bilan bir qatorda reproduktiv huquqlar masalasi eng muammoli dolzarb masalaga aylanib boryabdi. Yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, reproduktiv huquqlar – "xotin-qizlar, shuningdek erkaklarning o'z hayotlaridagi reproduktiv jarayonlarni o'zlari tasarruf qilishga oid tamoyilni aks ettiradigan yuridik kategoriyalardir" , - deb ta'kidlab o'tilgan. Nima sababdan reproduktiv huquqlar paydo bo'lgan degan savolga javob beradigan bo'lsak, buning asosiy sababi butun dunyoda, ayniqsa janubiy mintaqa aholisining tez, jadal suratda aholi soni jihatdan o'sib borishidan tashvishlanish hissidir va shuning natijasi o'laroq reproduktiv huquqlar paydo bo'lgan. Ya'ni,

bunda oiladagi farzandlar soni va farzandlar o'rtasidagi o'zaro yosh tafovutini nazarda tutilgan . Reproductiv huquq bu shaxsayol bo'ladimi yoki erkakmi har bir shaxning turli xil kamtilishlardan va majburlashlardan himoya qiladi hamda o'zlarining reproductiv huquqlaridan foydalangan holda erkin qaror qabul qilishda yordam beradi. Va albatta buning ham o'ziga xos bo'lgan tamoyillari mavjud .

Reproduktiv huquqlarning yuqorida ko'rsatilgan tamoyillaridan shuni bilishimiz mumkinki, bu barcha tamoyillar insonlarning huquqlarini va shaxsiy erkinliklarini qadrlash va boshqa shaxslarni kamsitilishidan himoya qilish maqsadida yaratilgan.

Ayollar huquqlarini himoya qilish yuzasidan xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish yuzasidan katta ahamiyatga ega bo'lgan tubdan o'zgartirishlar ikkinchi jahon urushidan keyin, ya'ni BMT tashkil etilib uning ustavi qabul qilingandan keyin yuz bergan. Shu jumladan ayollarni reproductiv huquqlarini amalga oshirilishi yuzasidan Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ilmiy izlanish olib borilgan, Nega aynan Sog'liqni saqlash vazirligi? Negaki, ayol va erkaklarning bu huquqi asosan ularning sog'ligi, normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan sog'liq bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat dasturlarini amalga oshirish chog'ida, tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, farzandlar orasidagi yoshlar o'rtasidagi o'zaro tafovutlar, tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish, aholini reproductiv salomatligini yaxshilash bo'yicha islohotlar olib borilgan. Shuningdek, qonunchilikda aholini reproductiv huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng katta yutuq, ya'ni himoya qilish asosini tashkil qiluvchi Qonun qabul qilindi. Bu qonun" Fuqarolarning reproductiv salomatligini saqlash to'g'risida" gi qonun deb nomlanib, 2019-yil 12-mart kuni qabul qilingan. Qonun qabul qilinishidan asosiy maqsad - fuqarolarning reproductiv salomatligini saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat hisoblanadi. Fuqarolarning reproductiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog'lomligi holati bo'lib, bu holat uning bola tug'ilishiga qodirligini belgilaydigan reproductiv tizimi, ushbu tizimning funksiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog'liq bo'lar ekan. Fuqarolarning reproductiv salomatligini saqlash:

- ☐ fuqarolarning reproductiv salomatligi to'g'risida ishonchli va to'liq axborot olishni;
- ☐ homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug'ilishini ta'minlaydigan, homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni;
- ☐ reproductiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni;
- ☐ jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;
- ☐ ehtimoldagi asoratlarning va reproductiv tizim funksiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko'maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun'iy to'xtatishni;
- ☐ kontratsepsiya usullari va ulardan foydalanish to'g'risida axborot olishni nazarda tutadi.

Yuqorida Qonunda ko'rsatilgan prinsiplar asosida davlat o'z siyosatini olib borishi kerek bo'ladi. Qisqacha bundan shuni tushunishimiz mumkinki, fuqarolarning jinsidan qat'iy nazar barcha reproduktiv huquqlarga ega ekan. Ammo reproduktiv huquqlarning asosiy e'tibori ayollarga qaratilgan. Sababi farzand dunyo keltirish faqat ayollarga xos sifat hisoblanadi. Va albatta bir organizmdan ikkinchi bir organism dunyo keltirish insonni ham psixologik ham fiziologik sog'ligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarida ayollarning reproduktiv huquqlari tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, xalqaro mexanizmlarni tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Xalqaro konfrensiyalardan biri bu Nayrobi konfrensiyasi hisoblanib, 1985-yilda BMT ning 10 yilligi – ayollar yutuqlarini sharxlash va baholash xalqaro konfrensiyasida bo'lib o'tgan bo'lib, mazkur konfrensiyaning bosh g'oyasi tenglik, taraqqiyot va tinchlikdan iboratdir. Konfrensiyada quyidagi 3 ta dunyo bo'ylab ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha kamchiliklar aniqlangan bo'lib, bular:

- ☒ kamsitishning yo'qotilishi faqat kam ta'minlangan ayollar orasida;
- ☒ rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar ahvoli yaxshilanishi sezilarli bo'lmagan;
- ☒ Ikkinchi o'n yillikdagi masalalar to'la amalga oshirilmagan.

Va mazkur konfrensiya oxirida Dastur qabul qilingan. Va Dasturda ayollarning huquqlarini Konstitutsiya va qonunchilikda takomillashtirish me'yorlari, siyosiy hayotda va qaror qabul qilishda ishtirokchiligini va turli xil ijtimoiy dasturlarda tengligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Yana bir xalqaro konfrensiyalardan biri bu Pekin platformasini misol qilib olishimiz mumkin. Mazkur Pekin deklaratsiyasi va harakatlar platformasi o'z ichiga 12 ta yo'nalishda ayollar huquqlariga oid sohalarga e'tibor qaratgan. Bular qashshoqlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, zo'ravonlikni oldini olish, boshqaruvda ishtirok, atrof-muhit va boshqa yo'nalishlardir. Ya'ni, e'tibor qaratishimiz kerakki, ayollarning sog'ligini saqlash yo'nalishini qamrab olgan, bu yo'nalish asosan ularning reproduktiv huquqlarini amalga oshirish bilan o'zaro zanjirdir.

Reproduktiv huquqlari bilan bog'liq bo'lgan xalqaro standartlardan biri sifatida Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga e'tibor qaratishimiz mumkin. Mazkur paktning 23-moddasida oila jamiyatning tabiiy va asosiy yacheykasi hisoblanishi, jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishi, nikoh yoshiga yetgan ayollar va erkaklar nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari:

- ☒ Turmushga chiqqan ayolning fuqaroligi to'g'risidagi konvensiya (1957);
- ☒ "Turmushga chiqish uchun rozilik berish, turmushga chiqish uchun eng minimal yosh va nikohni qayd etish to'g'risidagi Konvensiya (1962);
- ☒ "Xotin-qizlarni kamsitilishiga barham berish to'g'risidagi Deklaratsiya (1967);
- ☒ Ayollarga nisbatan kamsitilishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (1979); va Fakultativ protokoli (1999) lar ham xalqaro standartlar qatoridan joy olgan.

Bunda Ayollarga nisbatan kamsitilishlarni barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyaga alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mazkur konvensiya majburiy yuridik kuchga ega ekanligi bilan qolgan konvensiyalardan farq qiladi. Mazkur konvensiyani amal qilishini

nazorat qiluvchi komissiya ham tashkil qilingan. Bu konvensiyaga bizning davlat ham a'zo hisoblanadi. Va 2022-yil 15-16-fevral kunlari BMT ning Xotin-qizlarning kamsitilishini barcha shakllariga barham berish Qo'mitasining 81-sessiyasida mazkur konvensiyani bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Oltinchi davriy ma'ruzasida ko'rib chiqilgan. Qo'mitaning yakuniy xulosasi va mulohazalari esa 49 ta banddan iborat bo'lgan. Qo'mita bergan asosiy tavsiyalar xotin-qizlarni odil sudlovdan foydalanishi yuzasidan tavsiyalar inson huquqlari bo'yicha miliy institute faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar bilan bir qatorda stereotiplar bilan kurashish ham alohida tavsiyasida ta'kidlab o'tgan.

Bundan tashqari mazkur konvensiyani qabul qilgan ishtirokchi davlat konvensiyaga muvofiq, a'zo davlat xotin-qizlarining nihok va oila munosabatlari doirasidagi masalalarda kamsitilishini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, jumladan konvensiya erkak va ayollarni

Nikohda bir xil huquqlar;

Turmush o'rtog'ini erkin tanlash va o'zining to'liq roziligi bilan nikohdan o'tishda teng huquqlilik;

Nikohdan o'tish hamda uni bekor qilish paytida bir xil huquq va burchlarni ta'minlab berara ekan.

Demak yuqorida biz xalqaro miqyosda ayollarning huquqlari, jumladan reproduktiv huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro standartlarni va konvensiyalarni ko'rib chiqdik. Endi o'zimizning milliy qonunchiligimizda davlatimiz tomonidan ayollarning huquqlari qanday himoya qilinayotganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, avvalo yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda jamiyat hayotida ayollar va erkaklar teng huquq va erkinliklarga ega ekanligini ham mehnat faoliyati sohasida ham siyosiy sohada mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, davlat boshqaruvida ayol kishilarni sonini oshganini ko'rishimiz mumkin, bu albatta saylov tizimiga kiritilgan o'zgarish tufaylidir. Ya'ni, saylov tizimida ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatlarini saylayotganimizda nomzodlardan har beshta nomzodning 2 tasi ayol kishi ekanligidan ayollarning davlat boshqaruvi sohasidagi o'rnini yuqori pog'onaga chiqayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, aslida hozirgi murakkab globallashuv davrida inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ayollar huquqlariga rioya etilishi borasidagi vaziyat butun jahon hamjamiyatini havotirga solib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu boisdan, yurtimiz ham mana shundan tashvishlarni bartaraf etish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni oshirib kelmoqda deb aytishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston respublikasi ham 1995-yilning 6- may sanasida Birlashgan millatlar tashkilotining Xotin-qizlarni kamsitishni barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlar safiga qo'shildi. Avvalombor, ayollar huquqlarining himoyasi bo'yicha mexanizm haqida gap ketar ekan, birinchi navbatda mexanizm deyilganda aslida nima tushunishimizni bilib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunday ekan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mexanizmlar deganda birinchi navbatda amalda aynan mana shu sohani tartibga solish uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilish tartibini tushunishimiz mumkin sanaladi. Bundan tashqari, hozirda tegishli organlarning ayollar huquqlarini himoya qilish borasida olib borayotgan islohatlari qanday hamda ular yetarlicha samara bermoqdami ya'ni yurtimizda ushbu mexanizmlarning ahamiyati qay darajada degan savollar tug'ilishi tabiiy hol albatta. 2023-yilning 6 - 7 - sentyabr kunlarida Inson huquqlari bo'yicha milliy markazda aynan ayollar

huquqlarini himoya qilish yuzasidan o'quv kursi bo'lib o'tgan hisoblanib, mashg'ulotlarning aksariyati Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan.

Yurtimizda ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmi asosan oltita yo'nalishdan iborat hisoblanadi. Mana shu oltita yo'nalishni biz ayollar huquqlarini himoya qilish borasida zaruriy huquqiy baza yaratilganligi, tegishli institutsional tizimga asos solinganligi, muayyan bir tartibdagi o'quv hamda tarbiya ishlari allaqachon yo'lga qo'yilganligi, ushbu sohaga oid qonunlar ijrosining monitoringi olib borilayotgani va fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlar ko'lamidan yetarlicha foydalanilayotgani, shuningdek, ayollar huquqlarini himoya qilish borasida xalqaro miqyosda hamkorlik amalga oshirilayotganida ko'rishimiz mumkin hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda bugungi kundagi turli xil bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan gender tenglik masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hisoblanib, "O'ZBEKISTON -2030" strategiyasida ham xuddi shu masala dolzarb mavzulardan biri sifatida o'rin egallaganini ta'kidlab o'tish joiz. Aynan ayollar huquqlari, ularni ta'minlash maqsadida "2030- yilga qadar O'zbekiston Respublikasi gender tenglikka erishish strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli Qaroriga muvofiq ishlab chiqarilgan. Gender strategiyasining asosiy maqsadi – irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iboratdir. Strategiyaning o'ziga xos ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bular:

Demak, mazkur strategiyaning asosiy maqsadlari ayollarning barcha huquqlarini qamrab olar ekan.

Ayollarning reproduktiv huquqlarini ta'minlashdagi dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini muhokama qilishdan avval, ularning barcha huquq va erkinliklari qay darajada cheklanayotganini tahlil qilib chiqamiz. Avvalo, ayollarning mehnat qilish sohasidagi buzilayotgan huquqlariga to'xtalib o'tamiz. Yaqin 10 yil ichida ham ayollarni ishga qabul qilishda ish beruvchilar tomonidan juda ko'p hollarda qonun buzulishlariga yo'l qo'yildi. Ammo mehnat sohasida yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksiga binoan ish beruvchilar tomonidan ayollarning aynan mehnat qilish sohasidagi cheklanishlar va qonun buzulish holatlari kamaydi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" gi Plenum qarori qabul qilingandan keyin ayollarni nafaqat ayollarni balki qizlarni aynan ayol jinsida ekanligi uchun ishga olmaslik holatlari kuzatilgan edi. G'ayriqonuniy ravishda ishda qabul qilmaslikka asosiy sabab deb ayollar oila qurishi, ular ko'p vaqtini oilaga sarflagani uchun ishga yetarlicha e'tibor qarata olmasligi mumkinligi, oila qurgandan keyin, albatta, farzand dunyoga dunyoga keltirishi va ma'lum muddat tug'ruq ta'tilida bo'lishi, mazkur muddat davomida ular o'z ustida ishlamasligi bu esa ishni unumdorligini tushurib yuborishini aytib turli xil vajlar keltirishgan. Bu bir tomondan to'g'ri, haqiqattan ham erkaklar kabi muntazam ishlay olmishmaydi. Lekin tangani ikkinchi tomoni bo'lgani kabi ularga berilgan tug'ruq ta'tilini muddatiga ham e'tibor qaratishim kerak. Ya'ni, atiga 126 kun, agar qiyin holatda farzand dunyoga keltirgan bo'lsa 140 kun davomida ta'tilda bo'ladi. Bu muddat ularni o'z ustida ishlashi yoki oldin orttirgan sohaviy bilim va tajribalarini yo'qotishga sabab bo'ladi degani emas. Bu ish

beruvchilarni ayol xodimalarni ishga qabul qilmasligi uchun vaziyatdan chiqish uchun kerak bo'ladigan "niqob" edi xolos. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga "ayol va erkaklar ishga kirishda teng huquq va imkoniyatga ega" degan modda qabul qilinganidan keyin ancha g'ayriqonuniy ravishda ishga qabul qilmaganlarni soni kamaydi. Orada 1999-yil "Ayollar mehnatini to'liq yoki qisman qo'llanishi ta'qiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxati" to'g'risida qonun qabul qilingan. Ammo mazkur qonun 2019 – yil o'z kuchini yo'qotgan. Lekin uni o'rniga ayollarning mehnat va bandlik sohasidagi huquqlarini ta'minlash sohasida 2019-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq ayollarni ayrim sohalar yoki kasblarda jalb qilish ta'qiqlari bekor qilindi hamda ayollar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sohalar yoki kasblarning tavsiyasi etiladigan yangi ro'yxati tasdiqlandi.

Bundan tashqari, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarni rolini oshirish maqsadida 2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi Qonun qabul qilindi va mazkur qonunda ilk marotaba "jinsi asosida to'g'ridan-to'g'ri kamsitish" va "jinsi asosida bilvosita kamsitish" tushunchalariga o'zaro ta'riflar berib o'tilgan.

Endi esa ayollarning reproduktiv huquqlarini qanday himoya qilinayotgan va tizimdagi kamchiliklar haqida to'xtaladigan bo'lsam, avvalo, jamiyatimiz tomonidan nikoh yoshi bir yoshga ko'tarildi. Hozirgi kunda erkaklar uchun ham ayollar uchun ham 18 yoshni tashkil qiladi. Avvallari, ayollar uchun 17 yosh edi. Ammo, oilaviy munosabatlarda janjallar soni keskin o'sishi natijasida bu yosh hukumat tominidan bir yoshga 18 yoshga ko'tarildi. Nikoh yoshini bir yoshga ko'tarishdan maqsad bu erkak va ayollarni reproduktiv salomatligini rivojlantirishdir. Negaki ayollar erta turmush qurishsa, hali ularni organizmi yangi organism dunyoga keltirishga to'liq tayyor bo'lmaydi. Va natijada nosog'lom farzandlar dunyoga keltirishadi. Bu ham ona uchun ham farzandni hayoti uchun xavfli hisoblanadi. Va nosog'lom muhitda yashayotgan oilalarda turli xil boshqa muammolar paydo bo'la boshlaydi. Misol uchun, oilada o'zaro tinchlikni yo'qolishi, er va xotinni bir-birini tushunmasligi. Bular esa bora-bora oilani parokanda bo'lishiga olib keladi yokida ayolni muntazam ravishda tazyiq ostida yashashiga majbur qilib qo'yishi ham mumkin. Buning asosiy yechimi sifatida davlatimiz nikoh yoshini bir yoshga oshirdi. Agar oilada janjal bo'ladigan bo'lsa, bunday vaziyatda "mahalla yettiligi" tashkil qilindi. Bular asosan mahalladagi oilalarni ular hal qila olmayotgan muammolarni hal qilishda yordam berishni o'zlarini asosiy maqsadlari qilib belgilashdi. Bundan tashqari, oilada muntazam ravishda tazyiq ostida yashayotgan ayol aniqlansa, ularga maxsus reabilitatsiya markazlari ochildi. Ma'lum bir muddat davomida, ya'ni 30 kungacha bo'lgan muddat ichida ular o'z oilalaridan holi maxsus reabilitatsiya markazlarida yetarli malakaga ega bo'lgan mutaxasislarni tavsiyalari asosida o'zlarida bo'layotgan muammolarga yechim topishadi. Mazkur markazlarga asosan o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bor bo'lgan xotin-qizlar, agar ular farxandli bo'lishsa, farzandlari bilan birga joylashtiriladi. Dastavval bunday reabilitatsiya markazlari soni ko'p edi, ammo hozirgi kunda har bir viloyat markazida bittadan qoldirildi va ularni samarali ishlash mexanizmlari ishlab chiqildi.

Bunga yana qo'shimcha qiladigsn bo'lsam, oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarga "himoya order" lari berila boshlandi. Ya'ni, ayol zo'ravonlik va tazyiq qurboni bo'lsa, himoya orderi olish uchun o'zi joylashgan joydagi tuman yoki shahar ichki ishlar boshqarmasi bo'limiga

murojaat qilishi kerak bo'ladi, ya'ni yo o'zi yoki zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayolni tanigan insonlar. 2021-yil 1-iyundan boshlab, himoya orderi nusxasini olgan ya'ni tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan yoki ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar profilaktik hisobga olinadigan bo'lgan.

Tavsiya qilardimki, himoya orderi berish tartibini yanada kuchaytirilgan tizimini ishlab chiqish lozim. Unda himoya orderi berishdan to tortib mazkur orderni olgan ayollarni keyinchalik hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligini tekshiruvchi monitoring nazoratini tashkil etish lozim. Negaki, 30 kungacha bo'lgan muddatda rehabilitatsiya va maoslashtirish markazlarida o'zini har jihatdan yaxshilagan ayol, ma'lum muddat o'tgandan so'ng yana oilasini oldiga qaytadi. Endi o'zini to'g'irlab kelgan ayol yana o'sha avvalgi hayot tarzini boshdan kechiradi. Markaz oz fursatda o'z ta'sirini yo'qotadi.

Xalqaro case tahlillari bilan o'zaro bog'laydigan bo'lsak, bir case menga judayam qattiq ta'sir qildi. Bu Amanda Mellet va Irlandiya davlati o'rtasida sodir bo'lgan. 2011-yilda Amanda Mellet homilador bo'ladi va homiladorlik paytida ultra tekshiruv natijasida bolasida yurak nuqsoni borligi aniqlanadi, ya'ni homilani yuragi yaxshi urmaydi, normadan juda kam uradi. Keyinchalik homila tug'ilishi bilan ko'p vaqt o'tmasdan yoki tug'ilishi davomida nobud bo'lishi aniqlanadi. Irlandiya qonunchiligi bo'yicha, homilani oldirib tashlashgan faqat onaning hayoti xavf ostida qolsagina ruxsat berilgan edi. Ammo, Mellet o'zi sog'lom bo'lgan, faqat farzandi o'lik tug'ilishiga chiday olmaganligi sababli uni oldirib yuborishga qaror qilgan edi. Shu sababli, u Buyuk Britaniyaga borib, homilasini oldirib kelishga to'g'ri kelgan. Borgan, ammo yetarli darajada puli yo'q bo'lganligi sababli, u tezda Irlandiyaga qaytib ketishga majbur bo'lgan. U yetarlicha tibbiy va psixologik yordam ololmagani uchun Irlandiya hukumatini BMT Inson huquqlari qo'mitasiga yozib bergan. Qo'mita holatni o'rganib, haqiqattan ham Melletni bir qancha huquqlari, jumladan, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalada bo'lganligi, shaxsiy va oilaviy hayotga aralashmaslik huquqlari buzilgan deb topilgan. Va Qo'mita hukumatga Melletga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni o'rnini qoplash, qonunchiligiga aynan farzand oldirib tashlash masalasi bilan bog'liq bo'lgan o'zgartirish kiritish kerakligi haqida o'z tavsiyalarini bergan. Ya'ni, bu case dan ham ayollarni reproduktiv huquqlari buzilsa, qayerga murojaat qilish kerakligi, bundan tashqari ularni qanday reproduktiv huquqlari mavjud ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, yuqorida keltirilgan va tahlil qilgan ma'lumotlarimga ko'ra, ayollarni jamiyat hayotida ro'lini oshirish uchun har bir davlat xalqaro mexanizmlani o'z davlat qonunchiligiga moslashtirishi va ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo'lida turli xil davlat dasturlarini olib borishi lozim ekan. Ayniqsa, hozirda global muammolardan biri bo'lgan ayollarni reproduktiv huquqlari masalasida. Negaki, mamlakat kelajagi aholining yosh qatlami qo'limda, shunday ekan yosh avlodni sog'lom dunyoga keltirish esa ayollarga va ularning reproduktiv salomatligiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldosheva G., Borsiyeva Z. Gafurova N. Inson huquqlari. Darslik.- T.:TDYU, 2014. – B.156-168.
2. Mo'minov A.R., Tillaboyev M.A. Inson huquqlari: darslik. – T.:Adolat, 2013. – B.359-396.
3. Доклад о человеческом развитии. – М.:1998.-С.8
4. Valiyeva B.S., Cherkashina I.A. O'zbekistonda xotin-qizlar:qonun va jamiyat muammolari. – T.:1999. – B.131.

5. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrning mas'ul muharriri A.X.Saidov. – T.: "Adolat", 2004.-520 b.
6. Human rights of women: A Collection of international and regional normative instruments / prepared by J.Symonides, V.Volodin.- UNESCO.1999
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
8. "Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risida" gi Qonun.
9. "Mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" gi Prezident farmoni.
10. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi Qonun

